

## Ehtiyojmand oilalarga “saxovat” qutilari ulashildi

Xalqimizga xos xislatlar haqida soʻz ketganda, muruvvat va mehr-oqibat, saxovatpeshalik alohida tilga olinadi. Chindan ham, bu kabi insoniy fazilatlar yurtdoshlarimizning kundalik ishlari, niyatlari, saʼy-harakatlari bilan uygʻunlashib ketgan. Joriy yilning 27-aprel kuni TIQXMMI Qarshi filiali Yoshlar ittifoqi boshlangʻich tashkilot yetakchisi Oʻ.Toʻxtayev boshchiligida mohi Ramazon oyida xayrli va saxovatli ishlar amalga oshirildi. TIQXMMI Qarshi filiali Yoshlar ittifoqi boshlangʻich tashkilot yetakchisi Oʻ.Toʻxtayev, iqtidorli va faol talabalar hamda Ekologiya va atrof muhit muhofazasi taʼlim yoʻnalishi 1-kurs 127-guruh talabalari bilan hamkorlikda Qarshi shahridagi “Oqtepa” MFYda istiqomat qilayotgan 4 nafar ehtiyojmand va muhtoj oilalar holidan xabar olib, ularga oziq-ovqat mahsulotlari jamlanmasini tarqatildi. Bemorlar holidan xabar olindi, muhtojlarga koʻmaklashildi, yolgʻiz, boquvchisini yoʻqotganlarga sovgʻa-salomlar ulashildi.



Binobarin, inson va uning manfaatlari ustuvor sanalgan mamlakatimizda olib borilayotgan oqilona siyosat zahirida ham aholi turmushini yanada farovon etish, nuroniylarni eʼzozlash, voyaga yetayotgan yosh avlodni qadrlashdek ulugʻvor maqsadlar mujassam. Bu tashabbus bugun talabalarimizni yanada jipslashtirmoqda. Eng muhimi, bu tashabbus insonparvarlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

**Ekologiya va atrof muhit muhofazasi taʼlim yoʻnalishi 1-kurs 127-guruh rahbari Ilhom Gʻaniyev**  
**axboroti**  
**TIQXMMI matbuot xizmati**